

**ANDIJON VILOYATI YALPI HUDUDIY MAHSULOTINI KO‘PAYTIRISH  
YO‘LLARI****Maxmudov Odiljon Ixvoljon o‘g‘li***Andijon davlat texnika instituti*[makhmudovadil0110@gmail.com](mailto:makhmudovadil0110@gmail.com)**Komiljonov Begijon Nozimjon o‘g‘li***Andijon davlat texnika instituti*[komiljonovbegijon306@gmail.com](mailto:komiljonovbegijon306@gmail.com)**Ismoilov Sardorbek Isroiljon o‘g‘li**[ismoilovsardorbek984@gmail.com](mailto:ismoilovsardorbek984@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Andijon viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YHM) tarkibi va o‘shish tendensiyalari tahlil qilinib, iqtisodiy sektorlardagi tarkibiy o‘zgarishlar yoritiladi. Tahlil asosida kichik biznesni klasterlash, raqamlashtirish, agrosanoat va xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda investitsion muhitni yaxshilash orqali YHMni oshirish yo‘llari taklif etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Yalpi hududiy mahsulot, iqtisodiy o‘shish, Andijon viloyati, klaster, raqamlashtirish, investitsiya.*

**Abstract (in English):** *The article analyzes the structure and growth trends of the gross regional product (GRP) of Andijan region. It proposes strategies to increase GRP by integrating small businesses into clusters, promoting digitalization, developing agri-industry and services, and improving the investment environment.*

**Keywords:** *Gross regional product, economic growth, Andijan region, cluster, digitalization, investment.*

**Аннотация:** *В статье рассматривается структура и динамика роста валового регионального продукта (ВРП) Андижанской области. На основе анализа предложены меры по интеграции малого бизнеса, цифровизации, развитию агроиндустрии и сферы услуг, а также улучшению инвестиционного климата для повышения ВРП.*

**Ключевые слова:** *Валовой региональный продукт, экономический рост, Андижанская область, кластер, цифровизация, инвестиции.*

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri — hududlar darajasida yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmining barqaror o‘shib borishidir. Ayniqsa, aholi zich joylashgan va iqtisodiy faollik yuqori bo‘lgan viloyatlarda YHM ko‘rsatkichlari milliy

iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Andijon viloyatining yalpi hududiy mahsulotini ko‘paytirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va strategik ahamiyatga ham egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 11-sentabrda qabul qilingan PF–158-sonli Farmon bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston – 2030" strategiyasida 2030-yilga borib mamlakat YAIMini ikki barobar oshirish, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollariga yetkazish kabi aniq maqsadlar belgilangan<sup>68</sup>. Ushbu strategik yo‘nalishlar, shuningdek, 2024-yil 13-martdagi VMQ–128-sonli qaror va 2024-yil 31-dekabrda PQ–467-sonli qarorlar bilan hududiy iqtisodiy tahlil, innovatsion rivojlanish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha vazifalar mustahkamlandi<sup>69</sup>

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yil yakunida Andijon viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi 90 522,1 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 6,6 foizga o‘sgan. Bu viloyatga umumrespublika YAIMining 6,2 foizi to‘g‘ri kelishini anglatadi. 2025-yil yanvar-mart holatiga ko‘ra YHM tarkibida eng katta ulush xizmatlar sohasi (44,4%), sanoat (35,8%) va qishloq xo‘jaligiga (14,5%) to‘g‘ri kelmoqda<sup>70</sup>.

Ushbu maqolada Andijon viloyatining YHM shakllanishi, tarkibiy o‘zgarishlari va tarmoq bo‘yicha iqtisodiy dinamikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — YHM o‘shirishni jadallashtirish imkoniyatlarini aniqlash va resurslardan samarali foydalanish strategiyasini asoslashdan iborat.

Metodologik asos sifatida statistik tahlil, solishtirma yondashuv va grafik metodlar qo‘llanilgan. Maqola yakunida YHMni oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Yalpi hududiy mahsulot (YHM) — bu muayyan hudud (viloyat yoki shahar)da ma‘lum davr davomida ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlar umumiy qiymatini ifodalovchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichdir. U mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) tarkibining mintaqaviy ko‘rinishidir va mahalliy iqtisodiy faollikni baholashda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi<sup>71</sup>.

YHM iqtisodiy o‘shirish, resurslardan foydalanish samaradorligi, hududiy investitsion muhit va tarmoq diversifikatsiyasi haqida muhim axborot beradi. U shuningdek, iqtisodiy siyosat, byudjet rejalashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda tayanch ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.

<sup>68</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 11-sentabrdagi PF–158-sonli Farmoni. "O‘zbekiston–2030" strategiyasi. <https://lex.uz>

<sup>69</sup> Vazirlar Mahkamasi. (2024, 13-mart). O‘zbekiston Respublikasining 2024–2025 yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish to‘g‘risidagi qaror (VMQ–128). <https://lex.uz/uz>

<sup>70</sup> Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida Andijon viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibi. <https://www.andstat.uz>

<sup>71</sup> Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (2010). *Economics* (19th ed.). McGraw-Hill Education.

Iqtisodiyot nazariyasida YHM/YAIMni hisoblashning uch asosiy usuli mavjud:

- Ishlab chiqarish usuli (production approach) — Yalpi qo‘shilgan qiymat asosida.
- Daromadlar usuli (income approach) — barcha ishlab chiqaruvchilarning sof daromadlari yig‘indisi.
- Xarajatlar usuli (expenditure approach) — yakuniy iste‘mol, investitsiya, davlat xarajatlari va sof eksport yig‘indisi asosida.<sup>72</sup>

Aholi zichligi yuqori bo‘lgan, iqtisodiy jihatdan faol viloyatlarda YHMning barqaror va tez sur‘atlarda o‘shishi nafaqat hududiy, balki milliy miqyosdagi iqtisodiy barqarorlikka ta‘sir ko‘rsatadi<sup>73</sup>

Shu bois, YHMning shakllanish mexanizmlarini chuqur o‘rganish, uni oshirish yo‘llarini aniqlash va mahalliy darajada samarali iqtisodiy siyosat yuritish — zamonaviy iqtisodiy nazariyaning ham nazariy, ham amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

Andijon viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YHM) hudud iqtisodiyotining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u viloyatda ishlab chiqarilgan barcha yakuniy tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yil yakunida viloyat YHM hajmi 90 522,1 mlrd so‘mni tashkil etdi, bu esa 2023-yilga nisbatan 6,6 foiz o‘shish demakdir.

**1-jadval.**

**Andijon viloyati YHM hajmi o‘shish sur‘atlari.<sup>74</sup>**

Yil	2010	2015	2020	2024
<b>Andijon viloyati YHM hajmi (mlrd so‘m)</b>	4 497,3	13 914,0	42 623,6	90 522,1
<b>O‘shish sura‘ti</b>	-	45,3%	24,7%	28,4%

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Andijon viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YHM) hajmi 2010-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda izchil o‘shishga erishgan. 2010-yilda 4 497,3 mlrd so‘mni tashkil qilgan YHM hajmi 2024-yilga kelib 90 522,1 mlrd so‘mga yetdi. Bu esa 14 yil davomida 20 baravarga yaqin ko‘payganini bildiradi.

<sup>72</sup> Maxmudov N.M., Shakarov A.B., Ulashev X.A., Shakarov J.A. Makroiqtisodiyot (Kredit-modul bo‘yicha). – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. – 454 b.

<sup>73</sup> Mankiw, N. G. (2018). Principles of Economics (8th ed.). Cengage Learning.


<sup>74</sup> Andijon viloyati yalpi hududiy mahsuloti hajmi. <https://www.andstat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>

2010–2015-yillar: yuqori o‘shish sur‘ati. Mazkur besh yillik davrda YHM hajmi deyarli 3 barobar oshib, 13 914,0 mlrd so‘mga yetgan. Bu davr uchun o‘shish sur‘ati 45,3%ni tashkil etgan bo‘lib, eng yuqori nisbatda qayd etilgan. Ushbu yuqori o‘shish mamlakat miqyosida olib borilgan iqtisodiy liberallashtirish siyosati, hududiy infratuzilmaning rivojlanishi, hamda kichik va o‘rta biznes subyektlarining kengayishi bilan izohlanadi. Shuningdek, bu davrda xorijiy investitsiyalar oqimi bosqichma-bosqich faollashgan.

2015–2020-yillar: o‘shish sur‘atining pasayishi. 2015–2020-yillar oralig‘ida YHM hajmi 13 914,0 mlrd so‘mdan 42 623,6 mlrd so‘mga yetdi, o‘shish sur‘ati esa 24,7%ni tashkil etdi. Bu davrda nominal hajmdagi o‘shish salmoqli bo‘lsa-da, foiz jihatidan sezilarli pasayish kuzatildi. Bunga asosiy sabab sifatida 2020-yilda yuzaga kelgan global COVID-19 pandemiyasi ko‘rsatiladi.

2020–2024-yillar: o‘rtacha tiklanish bosqichi. Pandemiyadan keyingi yillarda viloyat iqtisodiyoti tiklana boshladi. 2020-yilda 42 623,6 mlrd so‘m bo‘lgan YHM hajmi 2024-yilda 90 522,1 mlrd so‘mga yetib, 28,4%ga o‘sdı. Bu ko‘rsatkich pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanishning bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi.

Yalpi hududiy mahsulot tarkibini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilish — hududiy iqtisodiyotning qaysi tarmoqlarga ko‘proq tayanayotganini aniqlash, ularning o‘zaro nisbatini o‘rganish hamda makroiqtisodiy barqarorlik darajasini baholash imkonini beradi. Har bir faoliyat turi o‘ziga xos iqtisodiy rol va vazifaga ega. Quyida Andijon viloyati bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari kesimida YHM tarkibi va tahlilini ko‘rib chiqamiz.



**1-diagramma. Andijon viloyatida yalpi hududiy mahsulot tarkibining yillar kesimidagi o‘zgarishi (2010–2024).<sup>75</sup>**

1-diagrammadan ko‘rishimiz mumkinki, 2010-yilda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi YHMda mutlaq ustunlikka ega bo‘lib, umumiy tarkibning 45,6 foizini tashkil etgan. Biroq 2024-yilda bu ko‘rsatkich 31,0 foizgacha pasaygan. Bu esa agrar tarmoqdagi nisbiy ustunlikning kamaygani, boshqa tarmoqlarning iqtisodiyotdagi ulushi ortganini anglatadi. Xususan, 2015-yildayoq ushbu soha ulushi 47,0 foizga yetgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda barqaror pasayish tendensiyasi kuzatiladi

Sanoat tarmog‘i esa teskari yo‘nalishda – ya‘ni yildan-yilga o‘z ulushini oshirib borgan. Agar 2010-yilda uning ulushi 18,1 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 28,8 foizga yetgan. Ayniqsa, 2015–2024 yillar oralig‘ida bu o‘shish ancha keskin bo‘lganini kuzatish mumkin. Bu esa viloyatda sanoatlashtirish siyosati izchil olib borilayotganini va mazkur tarmoq iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biriga aylanganini bildiradi.

Qurilish sohasi ulushi 2010–2020 yillar oralig‘ida nisbatan barqaror holatda bo‘lsa-da, 2024-yilda 5,9 foizga yetgani uning muhim iqtisodiy tarmoq sifatida shakllanayotganini

<sup>75</sup> Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida Andijon viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibi. <https://www.andstat.uz>

anglatadi. Bu o‘zgarishlar viloyatda infratuzilmaviy loyihalar, uy-joy va ishlab chiqarish obyektlari qurilishi hajmining oshib borayotganidan dalolat beradi.

Xizmatlar sohasi esa butun davr davomida o‘z ulushini asta-sekin oshirib borgan. 2010-yilda 32,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 34,3 foizgacha yetgan. Xususan, 2015-yilga kelib xizmatlar ulushi 32,6 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Ushbu sektorning nisbiy barqarorligi xizmatlarga bo‘lgan talabning uzluksiz o‘sib borayotgani bilan izohlanadi.

Umuman olganda, 1-diagramma viloyat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ustuvorligidan sanoat va xizmatlar sohalari tomon bosqichma-bosqich strukturaviy siljishlar yuz berayotganini ko‘rsatmoqda. Bu esa iqtisodiy diversifikatsiya va tarmoqlararo muvozanatga erishish yo‘lida muhim natijadir.

Viloyat iqtisodiyotini barqaror o‘sishga yo‘naltirish va YaHM hajmini ko‘paytirish uchun quyidagi taklif va chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

**Kichik biznesni rivojlantirish va klaster tizimiga integratsiya qilish.** Ularning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi ortib borayotgan bo‘lsa-da, hali ham moliyalashtirishga kirish, kooperatsion aloqalar va raqamli integratsiya bo‘yicha to‘siqlar mavjud. Shu bois, kichik biznesni yirik sanoat klasterlariga integratsiya qilish, davlat kafilligi ostida imtiyozli kreditlar doirasini kengaytirish, raqamlashtirish va elektron tijoratga moslashtirish, eksportga yo‘naltirilgan xizmatlarni markazlashtirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

**Sanoatni modernizatsiya qilish va raqamlashtirish.** Mahalliy korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni (IoT, ERP tizimlar, robotlashtirilgan liniyalar) joriy qilish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda texnoparklar va texnologik inkubatorlar tarmog‘i kengaytirilishi zarur.

**Xizmatlar sektorini diversifikatsiya qilish.** Andijon viloyatining xizmat ko‘rsatish tarmog‘i iqtisodiyotda katta rol o‘ynashiga qaramay, uning ichki tarkibida turli xizmat turlarining ulushi cheklangan. Ayniqsa, turizm, AKT, moliyaviy xizmatlar va logistika bo‘yicha salohiyat yetarli darajada ishga solinmagan. Bu yo‘nalishda hududiy turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlarni raqamlashtirish, onlayn platformalarni joriy etish va mahalliy xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarni kuchaytirish taklif etiladi.

**Qishloq xo‘jaligi va agrosanoatni modernizatsiya qilish.** Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘p turlari bo‘yicha respublika yetakchilaridan biri hisoblanadi. Biroq, mavjud salohiyatdan to‘liq foydalanilmayapti. Raqamli agrotexnologiyalarni joriy qilish, tomchilatib sug‘orish tizimini kengaytirish, agrologistika markazlarini rivojlantirish va

eksportga yo‘naltirilgan klasterlar tashkil qilish orqali sektorning iqtisodiy samaradorligi oshirilishi mumkin.

**Investitsion muhitni yaxshilash va tashqi sarmoyalarni jalb etish.** Andijon viloyatining investitsion salohiyati yuqori bo‘lsa-da, byurokratik to‘siqlar, energiya ta‘minotidagi uzilishlar va huquqiy noaniqliklar sarmoya jalb qilishda muammo bo‘lib qolmoqda. Investitsiya muhitini yaxshilash uchun yagona investitsiya oynasini joriy etish, erkin iqtisodiy zonalarni kengaytirish, soliq barqarorligini ta‘minlash va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish zarur.

Andijon viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YHM) so‘nggi o‘n yilliklarda izchil o‘shish tendensiyasini namoyon qilgan bo‘lsa-da, bu o‘shishning sifat tarkibi, tarmoqlararo muvozanat va ichki resurslardan foydalanish samaradorligi nuqtayi nazaridan hali ham to‘liq raqobatbardosh darajaga yetmagan. Maqola doirasida olib borilgan tahlillar viloyat iqtisodiyotida agrar sektordan sanoat va xizmatlar sohasiga tomon strukturaviy siljishlar kuzatilayotganini, ammo bu jarayonning hali murakkab va nomutanosib ekanini ko‘rsatdi.

Hududning YHM tarkibida xizmatlar va sanoat sohasining ulushi oshayotgan bo‘lsa-da, ayniqsa xizmatlar sektorida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega xizmat turlari (IT, moliya, logistika) yetarli darajada rivojlanmagan. Qishloq xo‘jaligi esa hali ham iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini bo‘lib qolmoqda, lekin bu sohada innovatsion texnologiyalarning sust joriy qilinayotgani iqtisodiy samaradorlikni cheklab kelmoqda. Shu bilan birga, investitsion muhitdagi byurokratik to‘siqlar va infratuzilmaviy cheklovlar, kichik biznesning klaster tizimiga integratsiyalanmaganligi YHM o‘shishining to‘siqlari sifatida qayd etildi.

Shu asosda maqola yakunida YHM hajmini oshirish bo‘yicha qator amaliy taklif va chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan:

- Kichik biznesni yirik sanoat klasterlariga integratsiya qilish, moliyaviy va raqamli infratuzilmalarga ulash;
- Sanoatni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar (IoT, ERP, avtomatlashtirilgan liniyalar)ni joriy qilish;
- Xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilish, turizm, AKT va moliyaviy xizmatlar salohiyatini ishga solish;
- Agrosanoatni modernizatsiya qilish, raqamli agrotexnologiyalar va tomchilatib sug‘orish tizimini keng joriy etish;
- Investitsion muhitni yaxshilash, yagona investitsiya oynasi, soliq barqarorligi va xalqaro moliyaviy hamkorlikni kuchaytirish.

Umuman olganda, Andijon viloyati iqtisodiyotida mavjud salohiyat va ichki imkoniyatlardan to‘laonli foydalanish orqali YHMni nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham oshirish mumkin. Bu esa hududiy iqtisodiy barqarorlikka erishish, aholining real

daromadlarini oshirish va respublika iqtisodiy strategiyasiga samarali hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida PF–158-son Farmon. 11-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024). Hududlar bo‘yicha iqtisodiy tahlil va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida VMQ–128-son qaror. 13-mart.
3. Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (2010). Economics (19th ed.). McGraw-Hill Education.
4. Mankiw, N. G. (2018). Principles of Economics (8th ed.). Cengage Learning.
5. Maxmudov N.M., Shakarov A.B., Ulashev X.A., Shakarov J.A. Makroiqtisodiyot (Kredit-modul bo‘yicha). – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022. – 454 b.
6. Kholboev, A. T., & Mamatqulov, D. D. (2023). Andijon viloyati iqtisodiyoti: tendensiyalar va muammolar. Hududiy rivojlanish masalalari, (1), 23–31.
7. <https://lex.uz>
8. <https://andstat.uz>